

INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMANING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Yo'ldoshev Ulug'bek Ravshanbekovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqola ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimada tarjimaning morfologik muammolari, ingliz va o'zbek tillarining morfologik sathi bo'yicha farqli va o'xshash jihatlari va ular natijasida yuzaga keladigan tarjima muammolari va ularning masalasiga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: tarjima, ingliz tili, o'zbek tili, morfologiya, sath, lison, o'xshashlik, zamon, kategoriya.

Abstract. This article deals with the morphological problems of translation from English to Uzbek, the differences and similarities of the morphological level of English and Uzbek, and morphological problems and their solutions.

Key words: translation, English language, Uzbek language, morphology, level, language, similarity, tense, category.

Аннотация. В данной статье рассматриваются морфологические проблемы перевода с английского на узбекский язык, различия и сходства морфологического уровня английского и узбекского языков, а также морфологические проблемы и их решения.

Ключевые слова: перевод, английский язык, узбекский язык, морфология, уровень, язык, сходство, время, категория.

Tarjima jarayonida tilning morfologik xususiyatlari bilan bog'liq muammolar qatoriga tillardagi fe'l so'z turkumiga doir o'xshashlik va farqli jihatlari alohida o'rin tutadi. Ular tarjima jarayonida turli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi fe'llarning o'xshashlik va farqli jihatlari quyidagilardan iborat:

- ikki tilda ham fe'l harakat yoki jarayonning umumiy ma'nosini anglatadi;
- ikki tilda ham zamon, mayl, nisbat, shaxs-son, inkor grammatik kategoriyalari mavjud.

- Ingliz tilida taksislar mavjud bo'lib, bu til hodisasi o'zbek tilida uchramaydi. Taksis kategoriyasi – bu birdan ortiq harakat yoki voqea sodir bo'lganda, ularning bir-biriga nisbatan zamondagi tartibini, ya'ni oldin va keyin sodir bo'lishini ifodalovchi grammatik vositalar tizimi hisoblanadi. Masalan, Past perfect, Past perfect continuous zamonlari oldin, Future perfect, Future perfect continuous, Future in the Past zamonlari keyin keladi. Masalan, If I had prepared for the exams better I would have entered the university.

– ingliz tilida fe'l zamonlari grammatik shakllar yordamida yasaladi. Masalan, I play – I will play. O'zbek tilida esa o'zakka qo'shimchalar qo'shiladi. Masalan, Men o'ynayman – Men o'ynayapman.

– ingliz tilida fe'llar standart fe'llar (help –helped – helped) va nostandart fe'llar (break – broke – broken) kabi turlarga bo'linadi. O'zbek tilida esa bunday holat kuzatilmaydi.

Mazkur o'xshashlik va farqli jihatlar badiiy tarjimada muallif bayon etgan ish-harakatning nutqda amalga oshish davriga ko'ra talqin etilishi yuzasidan ayrim tarjima qiyinchiliklarini keltirib chiqaradi.

Ingliz va o'zbek tillariga tarjimada fe'l so'z turkumiga doir eng ko'p tarjima qiyinchiliklarini keltirib chiqaruvchi holat bu ikki tildagi zamon kategoriyalari borasidagi o'zaro farqli jihatlarning mavjudligidadir. Bu boradagi tarjima muammolarini bartaraf etishda tarjimon ingliz va o'zbek tillarining zamon kategoriyalaridagi farqli va o'xshash jihatlarni yaxshi anglay olishi lozim.

Quyidagi jadvalda ingliz va o'zbek tillaridagi zamon kategoriyalarining solishtirma holatini ko'rishimiz mumkin (2.4. jadvalga qarang).

2.4-jadval

Ingliz va o'zbek tillarida fe'l zamonlari kategoriyasi

№	Ingliz tili	O'zbek tili
1.	Present Simple <i>I sometimes go to swimming.</i>	Hozirgi kelasi zamon <i>Men ba'zan suzishga boraman.</i>
2.	Present Continuous <i>I'm preparing my documents now</i>	Hozirgi davomli zamon <i>Hozir hujjatlarimni tayyorlayapman</i>
3.	Present Perfect <i>We have not completed all tasks yet</i>	Yaqin o'tgan zamon <i>Hali barcha vazifalarni bajarmadik</i>
4.	Present Perfect Continuous <i>I've been working all day.</i>	XXX
5.	Past Simple <i>We worked so hard yesterday</i>	O'tgan zamon <i>Biz kecha juda ko'p ishladik</i>
6.	Past Continuous <i>They were eating KFS at the restaurant.</i>	O'tgan zamon davom fe'li <i>Ular restoranda KFS yeyayotgan edilar.</i>
7.	Past Perfect <i>Sara had taken the selfie.</i>	Uzoq o'tgan zamon <i>Sara selfiga tushdi.</i>
8.	Past Perfect Continuous <i>Had you been waiting long before the taxi arrived?</i>	XXX
9.	Future Simple <i>I will text you later</i>	Kelasi zamon gumon fe'li <i>Men sizga keyinroq xabar yuboraman</i>
10.	Future Continuous <i>I will be completing my tasks tomorrow</i>	XXX
11.	Future Perfect <i>He will have finished his dissertation.</i>	XXX
12.	Future Perfect Continuous <i>Next year I will have been working here for two years.</i>	XXX

13.	Future Indefinite in the Past <i>I had a feeling they were going to back out of the deal.</i>	XXX
14.	Future Continuous in the Past <i>They were cooking as they were having a dinner party.</i>	XXX
15.	Future Perfect in the Past <i>They will have studied the English tenses.</i>	XXX
16.	Future Perfect Continuous in the Past <i>He will have been doing this since 2020.</i>	XXX
17.	Used to <i>He used to smoke (but now he doesn't smoke)</i>	O'tgan zamon hikoya fe'li <i>U ilgari chekar edi (lekin hozir chekmaydi)</i>
18.	To be going to <i>They are going to be happy to see you.</i>	Kelasi zamon maqsad fe'li <i>Ular sizni ko'rishdan xursand bo'lishadi.</i>
19.	Was/were going to <i>She was going to call her mother, but she forgot.</i>	O'tgan zamon maqsad fe'li <i>U onasiga qo'ng'iroq qilmoqchi edi, lekin u esidan chiqarib qo'ydi.</i>

Bizga ma'lumki, matn turli zamon va unda sodir bo'lgan voqealarning turfa xilligini o'zida namoyon etadi. Voqea-hodisalarni turli vaqtlarda sodir bo'lishini inobatga olsak, ularni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishda tarjimon uchun bir qancha qiyinchiliklar uchrashini tasavvur etish mumkin. Xususan, ingliz va o'zbek tillari doirasida amalga oshirilgan tarjimalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki bu ikki tilda voqea-hodisalarni sodir bo'lishini ifodalovchi harakatlarni bildiruvchi fe'l kategoriyalari bir-biridan tubdan farq qiladi.

Yuqoridagi javdal asosida ingliz va o'zbek tillaridagi zamonlarni solishtirganimizda ingliz tilida asosiy 16 ta zamon, o'zbek tilida esa asosiy 11 ta zamon mavjud ekanligi ma'lum bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, ingliz tilidan o'zbek tiliga badiiy tarjima jarayonida Present Perfect Continuous, Past Perfect Continuous, Future Continuous, Future Perfect, Future Perfect Continuous, Future Indefinite in the Past, Future Continuous in the Past, Future Perfect in the Past, Future Perfect Continuous in the Past zamonlarida ifodalangan fe'llarning muqobillari o'zbek tilida mavjud emas. Bu borada tarjimon ingliz tilida bu zamonlarni ifodalaydigan muyyan fe'l shakllarini o'zining lingvistik bilimlariga tayangan holda o'zbek tilida mavjud fe'l shakllari orqali ifodalash maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zbek tilida esa o'tgan zamon hikoya fe'li, kelasi zamon maqsad fe'li, o'tgan zamon maqsad fe'li kabi fe'l zamonlarining ingliz tilidagi aniq muqobillari mavjud emas. Shuning uchun tarjimon bu kabi zamonlarda ifodalangan ish-harakatlarni ingliz tilida mavjud til birliklaridan foydalanib tarjimini amalga oshirish kerak. Bu borada yuqoridagi jadvalda ko'rsatib o'tganimizdek, o'tgan zamon hikoya fe'li uchun “used to” dan, kelasi zamon maqsad fe'li uchun “to be going to” dan, o'tgan zamon maqsad fe'li uchun “to be going to” ning o'tgan zamon shaki “was/were going to” dan foydalanish maqsad muvofiqdir.



Quyida o'zbek tilida muqobil fe'l zamon mavjud bo'lmagan ingliz tilidagi fe'l zamonlariga oid misollarni o'zbek tiliga tarjima xususiyatlarini ko'rib chiqamiz:

1) Present perfect continuous XXX

Ingliz tilidagi Present perfect continuous zamonidagi gap, odatda, o'zbek tilida ifoda vositasini topishga payt ravishlari (fe'l zamonining signal so'zlari) odatda katta yordam beradi.

Tara hasn't been feeling well for two weeks – Tara ikki haftadan buyon o'zini yaxshi xis qilmayotgan edi

Bu fe'l zamonidagi gap o'zbek tiliga tarjima qilinganda ingliz tilidagi Present perfect continuous emas, balki Past continuous (o'zbek tilida o'tgan zamon davom fe'li) mazmunini bermoqda. Badiiy tarjimadagi muammo shundaki, o'zbek tiliga o'girilganda ish-harakatni tugab borish ma'nosi yuzaga kelmayapti.

2) Past perfect continuous XXX

I had been working at the company for five years when I got the promotion – Men lavozimga ko'tarilganimda kompaniyada besh yil ishlaganman.

Martha had been walking three miles a day before she broke her leg – Marta oyog'ini sindirishdan oldin kuniga uch mil yurgan.

Ingliz tilidagi Past perfect continuous zamonidagi gaplarni o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilsak, ular o'zbek tilidagi uzoq o'tgan zamon fe'liga aylanib qolmoqda va harakatni tugash davomiyligi ma'nosi yo'qolmoqda. Bu esa badiiy tarjimada muallif ifodalaydigan harakat va holatni o'zbek tilida aks ettirishda tarjima qiyinchiliklarini keltirib chiqaradi. Shuning uchun bu kabi matnlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda qo'shimcha ifoda vositalaridan foydalanishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi va yuqoridagi misollar o'zbek tiliga quyidagicha tarjima qilinadi:

I had been working at the company for five years when I got the promotion – Men lavozimga ko'tarilgan vaqtda kompaniyada ishlayotganimga besh bo'lgan edi.
Martha had been walking three miles a day before she broke her leg – Marta oyog'ini sindirishdan oldin kuniga uch mil yurar edi.

Ushbu misollarda ingliz tilidagi Past perfect continuous tense zamonidagi gaplar o'zbek tiliga tarjima qilinganda o'zining tugallanish yoki davomiylik ma'nosini yo'qotishini ko'rsatib bermoqda. Bu esa fe'l zamon kategoriyasining ayrimlari o'zbek tilida mavjud emasligi bilan tavsiflanadi. Bo'lajak badiiy tarjimonlar esa bu kabi farqli jihatlariga katta ahamiyat berishi talab etiladi.

O'zbek tilida ham shunday fe'l zamonlari mavjud bo'lib, ularda ifodalangan ish-harakatlarni ingliz tiliga tarjima qilishda bu fe'l zamonlarining muqobili topilmaydi. Tarjimon bu holatda o'sha fe'llar ifodalaydigan ma'noni beruvchi ingliz tilidagi ifoda vositalaridan foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'tgan zamon hikoya fe'li "used to"

O'tgan zamon hikoya fe'li kutilmaganda, qisqa vaqt ichida nutq so'zlanib turgan paytdan ilgari bajarilgan (yoki bajarilmagan) ish-harakatni hikoya qilish, tasvirlashni nazarda tutadi.

Bu yerda Boburning doim o'z kuchi bilan birga olib yuradigan kitoblari saqlanar edi (P.Qodirov) – This place where Bobur's books which he always carried with him were used to kept.

O'zbek tilidagi o'tgan zamon maqsad fe'lini ingliz tiliga tarjima qilishda asosiy muammo ushbu zamon ifodasini anglatuvchi "saqlanar edi" birikmasini ingliz tiliga o'girishdir. Agar ushbu birikmani ingliz tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilsak, tarjima matni ingliz tilida o'tgan zamon majhul nisabatidagi gapga to'g'ri keladi. Shuning uchun bu holatda tegishli ifoda tarjimasida foydalaniladigan "used to" shakllaridan birini ishlatamiz.

O'tgan zamon maqsad fe'li Was/were going to 

O'tgan zamon maqsad fe'li nutq so'zlangan paytdan ilgari bajarilishi maqsad qilingan, ammo voqe bo'lmagan ish-harakatni ifodalaydi.

Odatda, o'zbek tilidagi o'tkan zamon maqsad fe'li ingliz tiliga tarjima qilinganda "-moqchi edi" ifodasiga to'g'ri keladi. Ingliz tilida bu ifoda beradigan aniq zamon shakli mavjud emas. Shuning uchun bu holatda ingliz tilidagi "to be going to" til birligining o'tgan zamon shaklidan foydalanib ingliz tiliga tarjima qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'tgan kuni akamga xat yozmoqchi bo'ldim, lekin uni yetib borishi dargumon edi
– *Last day I was going to write a letter my brother but it was impossible to deliver it.*

O'zbek tilidagi fe'l zamon shaklini ingliz tilidagi ifoda birligidan foydalanib ingliz tiliga tarjima qilish holati tilimizdagi kelasi zamon maqsad fe'lini ingliz tiliga o'girish bilan ham bog'liqdir.

Bundan tashqari, ingliz tilidagi Present Indefinite Tense (Xozirgi oddiy zamon)da ifodalanadigan ish-harakatlar o'zbek tilida hozirgi kelasi zamonga to'g'ri keladi. Masalan:

I go to the university – Present Indefinite Tense

Men univesritetga boraman – Hozirgi kelasi zamon

Ingliz tilida ushbu gapni Present Indefinite Tense zamoniga tegishli ekanligini fe'lning "bare infinitive" holatida ekanligi va qo'llanadigan payt ravishlari (every day, always, usually) dan anglashimiz mumkin. O'zbek tilida esa bu gapni hozirgi kelasi zamonda ekanligini fe'lga qo'shilgan "-a" qo'shimchasidan bilishimiz mumkin. Bu kabi holat nafaqat ingliz tilidan o'zbek tiliga yoki o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima jarayonida, balki o'zbek o'rganuvchilarga ingliz tili fe'l zamonlarini o'qitishda ham muayyan qiyinchiliklar paydo qiladi. Bu ingliz va o'zbek tillarining o'ziga xos unikaliga jihatlari va ingliz va o'zbek xalqining olamni anglashning tilda voqealanishi yuzasidan farqli jihatlarni ko'rsatib beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimada yuzaga keladigan morfologik muammolar bu ikki tillarning o'zaro farqli jihatlari borasida aspektlar yuzasidan kelib chiqadi. Bu muammolarni bartaraf etishda transpozitsiya kabi morfologik tarjima usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pym, A. Natural and Directional Equivalence in Theories of Translation. 1992. –186 p.
2. Qambarov N.M. Tarjima transformatsiyalari va til kontaktlari (nazariy masalalar). O'zbekistonda xorijiy tillar elektron jurnali. – T.: 2016. – 34-42 b.